



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel-may.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdukirimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исмаиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	
RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI	62
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ	68
Насиров Дилшод Фархадович, Тохинова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна	
FRANCHAYZING FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	74
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
AGROINDUSTRIAL BIOMASSANING IKKILAMCHI UTILIZATSIYASI – YOPIQ SIKL IQTISODIY MODELINING INFRATUZILMAVIY TAYANCHI: IQTISODIY-EKOLOGIK MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT.....	80
Kadirova Maraljon Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MOLİYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	87
Alimov Umid Xamid o'g'li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich	
RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI.....	92
G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li, Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
DEVELOPMENT OF LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE	104
Akhrorova Munavvar Farkhod kizi, Abdalimov Orzubek Tuychibek o'g'li, Samiyev Damir Ahmad o'g'li, Rakhmonov Umrzoq Otaboy o'g'li	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI.....	112
Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U.Umarov	
O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	119
Raxmonova Sabina Navro'z qizi, Nazar Nazarov G'ulomovich	
TARMOQ TUZILMASINI SHAKLLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING AHAMIYATI	124
Samadova Solik qizi, Normurodov Husan	
TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	130
Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li, Karimov Umrbek Javlonbek o'g'li	
ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI.....	137
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYADA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA Olish, BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	141
Axmetova Nasiba Axmetovna, Mavlanov Normo'min Normamatovich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA TRANSPORT MARKETINGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	147
Iskandarov Quddrat Shuxratovich, Ataniyazova Zarina Niyetbay qizi	
IQTISODIY ATAMALARINING O'ZBEK TILIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	154
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Salamova Oliya	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HAJMI, OMILLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.....	158
Tohirova Gulnoza Zokirovna, Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li	
RAQAMLI BANK TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH)NING AN'ANAVIY BANKLARGA TA'SIRI.....	164
Shermuxe'dov Bexzodjon Usmonovich, Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING AXBOROT BOZORIGA TA'SIRI: MAHSULOT VA MEHNAT BOZORIDAGI O'ZGARISHLAR.....	170
Mo'y'dinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiye'vich	
ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA.....	175
Axmedov Xasan Ruzibaye'vich, Ruzibaye'va Karima Shavkat qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SARATON KASALLIGIDA PSIXOLOGIK REABILITATSIYA: "5 OLAM" MODELINI KENGAYTIRISH VA AMALIY QO'LLASH	182
Salayeva Laylo Shavkatovna, Toshtemirov Doston Tohirjon o'g'li	
THE CHALLENGES OF MANAGING CROSS-FUNCTIONAL TEAMS IN PHARMACEUTICAL PROJECTS	187
Murodova Feruzakhon Talatovna	
GREEN ECONOMY AND GREEN INVESTMENT: SUSTAINABLE AS A MAIN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH.....	194
Tursinov A.J., Jalgasbaeva J.A., Axmetova U.M.	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	199
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich, Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li	
O'ZBEK TILINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI.....	204
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Baxronov Timur Rustamovich	



ZAMONAVIY TASHKILOTLARDA STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	208
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li, Ashurova Jasmina Jo'ra qizi	
O'ZBEKISTONDA ATROF-MUHIT IQTISODIYOTI VA BARQAROR RIVOJLANISH MASALALARI.....	213
Boltayeva Sh.B., Hayitova Charos, Latipova Jasmina	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	216
Izzatillayeva Munisabonu Ikromjon qizi, Yangiboyev Sirojddin Juramurodivich	



O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Izzatillayeva Munisabonu Ikromjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
TDIU–Pendidikan xalqaro qo'shma ta'lim dasturi fakulteti talabasi
E-mail: izzatillayeva.munisa79@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Yangiboyev Sirojddin Juramurodivich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish jarayoni tahlil qilingan. Tadqiqotda 2019-yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" hamda "O'zbekiston – 2030" strategik dasturining asosiy yo'nalishlari va ularning amaliy ahamiyati yoritilgan. Statistik ma'lumotlar, xalqaro tajriba, huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda qiyosiy tahlillar asosida mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tishning institutsional va moliyaviy asoslari, erishilgan natijalar hamda mavjud muammolar tahlil qilingan. Xulosa qismida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, ekologik ta'lim hamda milliy moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi.

Abstract: This article analyzes the process of implementing green economy principles in the Republic of Uzbekistan. The study examines the key directions and practical significance of the "Strategy for Transition to a Green Economy" adopted in 2019, as well as the strategic program "Uzbekistan – 2030." Based on statistical data, international experience, legal and regulatory documents, and comparative analysis, the institutional and financial foundations of the country's transition to a green economy, the achieved results, and existing challenges are explored. The conclusion presents proposals for improving innovative approaches, environmental education, and national financial mechanisms in the development of the green economy.

Key words: sustainable development, green economy, Uzbekistan – 2030 strategy, environmental safety, energy efficiency.

Аннотация: В данной статье проанализирован процесс внедрения принципов «зелёной» экономики в Республике Узбекистан. В исследовании рассмотрены основные направления и практическое значение «Стратегии перехода к зелёной экономике», принятой в 2019 году, а также стратегической программы «Узбекистан – 2030». На основе статистических данных, международного опыта, нормативно-правовых документов и сравнительного анализа освещены институциональные и финансовые основы перехода страны к «зелёной» экономике, достигнутые результаты и существующие проблемы. В заключительной части предложены меры по совершенствованию инновационных подходов, экологического образования и национальных финансовых механизмов в целях дальнейшего развития «зелёной» экономики.

Ключевые слова: устойчивое развитие, зелёная экономика, стратегия «Узбекистан – 2030», экологическая безопасность, энергоэффективность.

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tushunchalari global siyosiy, iqtisodiy hamda ekologik kun tartibining ajralmas qismiga aylandi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, global isish, havoning ifloslanishi va yer degradatsiyasi kabi muammolar insoniyatni tabiat bilan uyg'un rivojlanish yo'llarini izlashga undamoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot modeli atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish,



resurslardan samarali foydalanish, uglerod chiqindilarini qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash tamoyillariga asoslanadi [1].

O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu yondashuv ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega. Mamlakatning geografik joylashuvi, suv resurslarining cheklanganligi, iqlimning quruqligi va energiya iste'molining yuqoriligi yashil iqtisodiyotga o'tish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu bois 2019-yilda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", 2022-yilda esa "O'zbekiston – 2030" strategik dasturi qabul qilinib [2], mamlakatning ekologik va iqtisodiy siyosatini yangi bosqichga olib chiqishning asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Ushbu maqolada mazkur strategik hujjatlar asosida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy yo'nalishlari, amaliy mexanizmlari, mavjud muammolari va istiqbollari chuqur tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonning barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan siyosati hamda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan iqtisodiy modelga o'tish strategiyasi ilmiy va amaliy jihatdan keng muhokama qilinmoqda. Mamlakatning 2019–2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" ushbu yo'nalishdagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur strategiyada energetika, suv resurslari, transport va chiqindilarni boshqarish tizimlarida ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Kasymov I.Z. yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etib, ayniqsa soliqqa tortish tizimi, subsidiyalari hamda "yashil kreditlar" mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan. Zafar M. va Tadjibaeva D. tomonidan olib borilgan tahlillar natijalariga ko'ra, O'zbekistonda atrof-muhit barqarorligi va iqlim o'zgarishiga moslashuv siyosati davlat investitsiyaviy dasturlari bilan integratsiyalashib bormoqda.

Asian Development Bank va World Bank tomonidan tayyorlangan hisobotlarda mamlakatning qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash hamda ekologik infratuzilmalarni rivojlantirish borasidagi yutuqlari va mavjud muammolari yoritilgan.

Shuningdek, Organisation for Economic Co-operation and Development hamda European Bank for Reconstruction and Development tashkilotlarining mintaqaviy tadqiqotlari O'zbekiston tajribasini boshqa Markaziy Osiyo davlatlari bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Djuraev A.M. qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy samaradorligi va ularni joriy etishdagi moliyaviy, texnik hamda institutsional omillarni tahlil qilgan.

International Energy Agency tomonidan tayyorlangan Uzbekistan Energy Profile tahliliy nashrida esa O'zbekistonning umumiy energiya balansidagi yashil texnologiyalar ulushi, investitsion ehtiyojlar va raqamlashtirish darajasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

United Nations Environment Programme va Global Environment Outlook hisobotlarida esa O'zbekiston global ekologik tendensiyalar kontekstida baholanib, global isish, bioxilma-xillikning qisqarishi va havo sifati kabi ko'rsatkichlar bo'yicha qiyosiy tahlillar taqdim etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqotda zamonaviy kompleks yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, huquqiy-hujjatli tahlil asosida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga oid strategik qarorlari, dasturlari va qonunchilik hujjatlari o'rganildi [3]. Bu orqali yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining normativ-huquqiy asoslari aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, statistik ma'lumotlar tahlili asosida energiya iste'moli, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi, chiqindilar hajmi hamda suv resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari o'rganildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, World Bank va United Nations Environment Programme kabi manbalardan olindi [4].

Uchinchidan, qiyosiy yondashuv asosida O'zbekiston tajribasi boshqa rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi. Bu esa mavjud yutuqlar va rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Tahlillar SWOT-metodi yordamida amalga oshirilib, kuchli va zaif tomonlar, mavjud imkoniyatlar hamda ehtimoliy xavf omillari baholandi.

Tadqiqot davomida xalqaro adabiyotlar, ilmiy maqolalar va rasmiy hisobotlar asosiy axborot manbalari sifatida foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish sohasida muhim natijalarga erishmoqda [5]. 2019-yildan boshlab mamlakatda ushbu yo'nalishga oid qator strategik hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish,



energiya samaradorligini oshirish, chiqindilar hajmini qisqartirish, suv resurslarini samarali boshqarish hamda ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi. Mazkur hujjat 2030-yilgacha bo'lgan davrda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik barqarorlikni ta'minlashni maqsad qilgan.

Prezident tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi esa yashil iqtisodiyot tamoyillarini milliy rivojlanish siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylantirdi. Ushbu strategiyada energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini oshirish, "yashil kreditlar" tizimini rivojlantirish, ekologik transport vositalaridan foydalanishni kengaytirish hamda chiqindilarni boshqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Energetika sohasida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Hozirgi kunda quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilish ishlari jadallashmoqda. Xususan, Buxoro viloyati va Navoiy viloyati hududlarida qurilgan quyosh elektr stansiyalari elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan birga, karbonat angidrid (CO_2) chiqindilarini kamaytirishga ham xizmat qilmoqda.

Aholi o'rtasida ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida ekologiya yo'nalishidagi fanlar o'qitilmoqda, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari kengaytirilgan. Shu bilan birga, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, jumladan, "yashil texnologiyalar" yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalarni rag'batlantirish va subsidiyalash mexanizmlari joriy etilgan [6].

So'nggi besh yillik davrda O'zbekistonda yashil iqtisodiyot yo'nalishida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy energiya ishlab chiqarishdagi ulushi 2020-yildagi 10,2 foizdan 2023-yilda 16 foizga yetgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkichning 20 foizga yetishi prognoz qilinmoqda. Bunday natijalarga quyosh va shamol elektr stansiyalari sonining ortib borayotgani muhim omil bo'lmoqda. Xususan, 2020-yilda atigi 3 ta bo'lgan mazkur stansiyalar soni 2023-yilga kelib 18 taga yetgan.

Bundan tashqari, karbonat angidrid (CO_2) chiqindilari hajmida ham bosqichma-bosqich qisqarish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa yashil texnologiyalar va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ijobiy samarasini namoyon etadi. Jumladan, 2020-yilda 110,2 mln tonnani tashkil etgan chiqindilar hajmi 2023-yilda 103,5 mln tonnagacha kamaygan.

Ekologik investitsiyalar hajmi ham yildan yilga ortib bormoqda. Bu holat davlat va xususiy sektorning ekologik loyihalarga bo'lgan qiziqishi hamda e'tibori kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Xususan, 2020-yilda 4,2 trillion so'mni tashkil etgan ekologik investitsiyalar hajmi 2023-yilda 9,6 trillion so'mgacha oshgan.

Shuningdek, qayta ishlangan chiqindilar ulushining ortib borayotgani aholi va korxonalar o'rtasida chiqindilarni saralash hamda qayta ishlash madaniyati shakllanayotganini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich 2020-yildagi 12,5 foizdan 2023-yilda 18,9 foizgacha ko'tarilgan.

Yashil transport vositalari, jumladan elektromobillar va gibrid avtomobillar sonining ortishi ham transport sohasida ekologik barqarorlik tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etilayotganidan dalolat beradi. Ushbu yo'nalishda 2024-yil uchun prognoz ko'rsatkich 5,5 ming donani tashkil etishi kutilmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga oid asosiy ko'rsatkichlar (2020–2024-yillar)¹

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	10,2	11,8	13,4	16,0	20,0
Elektr energiyasi ishlab chiqarish (mlrd kVt-soat)	66,5	67,2	70,0	75,0	80,0
Shamol va quyosh elektr stansiyalari soni	3	7	12	18	25
CO_2 chiqindilari (mln tonna)	110,2	108,4	106,1	103,5	100,0
Ekologik investitsiyalar hajmi (mlrd so'm)	4200	5400	7400	9600	12000
Qayta ishlangan chiqindi ulushi (%)	12,5	14,0	16,2	18,9	22,0
Yashil transport vositalari soni (ming dona)	0,6	1,4	2,1	3,8	5,5

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha muhim huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilgan. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish jarayonida ayrim tashkiliy va iqtisodiy masalalar ham mavjud. Jumladan, moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi, zamonaviy texnologik uskunalarning yuqori qiymati hamda xalqaro grant va kreditlar ulushining salmoqliligi uzoq muddatli ekologik barqarorlikni ta'minlashda qo'shimcha e'tibor talab etadi [7].

1 Ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi, Energetika vazirligi va Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha hisobotlari asosida shakllantirilgan.



Shuningdek, ayrim yo'nalishlarda malakali mutaxassislar salohiyatini yanada oshirish zarurati kuzatilmoqda [8]. Mahalliy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ayniqsa ekologik muhandislik, qayta tiklanuvchi energetika, chiqindilarni boshqarish va ekologik monitoring kabi yo'nalishlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi [9]. Shu bois, ushbu sohalarda maxsus davlat dasturlari va amaliy ta'lim loyihalarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir [10].

Xalqaro tajribaga murojaat qilinadigan bo'lsa, European Union mamlakatlarida yashil iqtisodiyotga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo'lib, bunda resurs bazasini kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan [11–12]. Shuningdek, Qozog'iston, Gruziya va Marokash kabi davlatlarning tajribasi ham O'zbekiston uchun foydali amaliy yo'nalishlarni namoyon etadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash uchun ekologik innovatsiyalarni faol jalb etish, nodavlat sektor ishtirokini kengaytirish hamda ekologik moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish borasida mustahkam strategik va huquqiy asoslarni shakllantirgan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mazmunan global barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashgan bo'lib, mamlakatning ekologik va iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu strategiyaning amaliy samaradorligini yanada oshirish uchun bir qator qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ichki moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, mahalliy texnologiyalar ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda xalqaro texnik hamkorlik va tajriba almashinuvini faollashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, yoshlar o'rtasida ekologik madaniyat va mas'uliyatni shakllantirish, ekologik startaplarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ekologik monitoring tizimini rivojlantirish kabi yo'nalishlar ham ustuvor ahamiyatga ega.

O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham istiqbolli va samarali yo'nalish hisoblanadi. Chunki ushbu yondashuv orqali ekologik xavfsizlikni mustahkamlash bilan birga yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish, energiya samaradorligini kuchaytirish hamda aholi salomatligi va turmush sifatini yaxshilash kabi ijobiy natijalarga erishish imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Стратегия перехода Республики Узбекистан к «зелёной» экономике на 2019–2030 годы. – Ташкент: МЭУ, 2019. – 56 с.
2. О стратегии «Узбекистан – 2030» // Народное слово. – 2023. – № 189. – С. 3–5.
3. Государственный комитет по статистике Республики Узбекистан. Экологические показатели [Электронный ресурс]. – Режим доступа: stat.uz (дата обращения: 29.05.2025).
4. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Environment Outlook 6. – Nairobi: UNEP, 2022. – 112 p.
5. Asian Development Bank. Uzbekistan: Green Economy Transition Plan 2022–2030. – Manila: ADB, 2023. – 78 p.
6. OECD. Towards Green Growth in Central Asia. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 145 p.
7. World Bank. Uzbekistan Climate Change and Green Growth Analysis. – Washington, D.C.: World Bank, 2022. – 98 p.
8. European Bank for Reconstruction and Development. Green Economy Transition Strategy 2021–2025. – London: EBRD, 2021. – 83 p.
9. Касымов И.З. Пути развития зелёной экономики в Узбекистане // Экономика и инновации. – 2022. – № 4. – С. 45–52.
10. Джураев А.М. Возобновляемая энергетика в Узбекистане: потенциал и перспективы развития // Энергетика Центральной Азии. – 2023. – № 2. – С. 14–20.
11. Zafar M., Tadjibaeva D. Green Growth and Environmental Sustainability in Uzbekistan: Policy Implications // Sustainability. – 2021. – Vol. 13(6). – P. 3319.
12. International Energy Agency. Uzbekistan Energy Profile 2023. – Paris: IEA, 2023. – 91 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
